



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 338 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlarlari	203
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlio'Imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
The importance of foreign investments in the economic development of the country	229
Rahmonov Samandar, K.J. Matkarimov	
Nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqani rivojlantirishdagi ahamiyati	235
Abdikarimova Zuxra Baxramovna, Saida Eshchanova	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	240
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotni yo'lga qo'yishdagi muammolar va ularga innovatsion yondashuv	244
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi	
O'zbekiston xalqaro bozorga integratsiyalashuv jarayonida qishloq xo'jaligi ayrim mahsulotlarini yetishtirishning o'ziga xos jihatlari	247
O'razboyeva Farangiz Quadrat qizi, Ametov Quvandik Mamatjanovich	
The role of profitability in evaluating enterprise performance	251
Kholiqulov A.N., Khlomurodova S.A.	



Yaponiyada demografik muammo va uning iqtisodiyotga ta'siri.....	256
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tajribalari.....	262
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna, Otamuratova Dilnoza Dilmurod qizi	
Sanoat korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarining tahlili.....	265
Islomov Shuhrat Marufjonovich, Qarshiev Avazbek Sa'dullaevich	
Talabalarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda Pareto qoidasini tadbqiq etishning muhim xususiyatlari.....	272
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, Asqarov Abrorjon Xayitmirzayevich	
Sanoat siyosatining nazariy va empirik asoslari.....	277
Sobirxo'jayev Xadyatillo, Hashimov P.Z.	
Yashil iqtisodiyot sharoitida energiya samaradorligining milliy iqtisodiyotga ta'siri.....	284
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Yashil biznes: Muqarrar kelajak va yangi imkoniyatlar.....	290
Shirinxon Axmadova, Xaydarov Nomozali Xolmirzayevich	
Katta ma'lumotlar tahlili va ularni biznes qarorlarini qabul qilishda samarali foydalanish.....	296
Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li, Samadqulov Muhammadjon	
Startaplar uchun marketing strategiyalari: Bozor tahlilidan brendgacha.....	301
Qodirov Sardor Qosimjonovich	
O'zbekiston sharoitida zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	305
Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiyeovich	
Suv resurslari ustidan nazorat va mintaqaviy siyosat: O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqlim ziddiyatlari.....	311
Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li, Egamberdiyev Muzaffar	
Tijorat banklarda zamonaviy ekotizim xizmatlarini takomillashtirish.....	320
Abduvaliyev Mirjalol Ikrom o'g'li, Po'latov Laziz Akmal o'g'li, Axmedov A.S	
Особенности кредитной поддержки субъектов предпринимательства в сфере туризма и факторы препятствующие его развитию.....	327
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовевна	
O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyot" ga o'tishda kichik va o'rta biznesning o'rni va imkoniyatlari.....	333
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Jobborov Anvar Egamberdiyevich	



O'ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISHDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNING O'RNI VA IMKONIYATLARI



Shoydulova Maftuna Zafar qizi

Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti
Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi
iqtisod2005@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Jobborov Anvar Egamberdiyevich

DTPI, Registrator ofisi memejeri
anvarjabborov78@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi globalashuv va raqamli transformatsiya davrida kichik va o'rta biznes (KOB)ni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Maqolada kichik va o'rta biznesni raqamlashtirish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Elektron tijorat, elektron to'lov tizimlari, davlat xizmatlarining onlayn ko'rsatilishi va "raqamli tadbirkorlik" infratuzilmasining rivojlanishi KOB faoliyatining samaradorligini oshirishi ta'kidlanadi. Shuningdek, KOBni raqamlashtirish bandlikni kengaytirish, soliqlar tushumini ko'paytirish va iqtisodiy faol aholining ijtimoiy farovonligini yaxshilashga xizmat qilishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, o'rta biznes, raqamlashtirish, elektron tijorat, innovatsiya, bandlik, iqtisodiy o'sish, raqamli transformatsiya, davlat qo'llab-quvvatlashi, eksport salohiyati.

Abstract: In the era of globalization and digital transformation, supporting small and medium-sized enterprises (SMEs) is a key factor in ensuring the sustainable development of Uzbekistan's economy. This paper analyzes the socio-economic significance of SME digitalization. It emphasizes that the development of e-commerce, electronic payment systems, online public services, and the infrastructure of "digital entrepreneurship" enhances the efficiency of SMEs. Furthermore, SME digitalization plays a crucial role in expanding employment, increasing tax revenues, and improving the social well-being of the economically active population.

Key words: small business, medium business, digitalization, e-commerce, innovation, employment, economic growth, digital transformation, government support, export potential.

Аннотация: В условиях глобализации и цифровой трансформации поддержка малого и среднего бизнеса (МСБ) является важным фактором устойчивого развития экономики Узбекистана. В статье анализируется социально-экономическая значимость процесса цифровизации МСБ. Подчеркивается, что развитие электронной коммерции, электронных платежных систем, онлайн государственных услуг и инфраструктуры «цифрового предпринимательства» способствует повышению эффективности деятельности МСБ. Кроме того, цифровизация МСБ играет важную роль в расширении занятости, увеличении налоговых поступлений и улучшении социального благополучия экономически активного населения.

Ключевые слова: малый бизнес, средний бизнес, цифровизация, электронная коммерция, инновации, занятость, экономический рост, цифровая трансформация, государственная поддержка, экспортный потенциал.



KIRISH

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolarning keskinlashuvi natijasida dunyo mamlakatlari "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga faol o'tmoqda. Mazkur yondashuv iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanish sharoitlarini yaratishga qaratilgan.

O'zbekiston uchun ham bu masala nihoyatda dolzarbdir. Chunki mamlakat iqtisodiyoti yuqori darajada resurslarga tayanadi: 2024-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining 85 foizi hali ham an'anaviy manbalarga – tabiiy gaz va ko'mirga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga, atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari hajmi ortib bormoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda umumiy CO₂ chiqindilari hajmi 130 mln tonnadan oshgan, bu esa 2020-yilga nisbatan 12 foiz yuqoridir. Demak, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun "yashil iqtisodiyot"ga o'tish – strategik zaruratdir.

Mazkur jarayonda kichik va o'rta biznes (KOB) alohida o'rin tutadi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston YalMining 56,4 foizi, sanoat mahsulotlarining qariyb 40 foizi va xizmatlar sohasining 70 foizga yaqini KOB hissasiga to'g'ri kelgan. Bundan tashqari, KOB sektorida 5,6 milliondan ortiq kishi band bo'lib, bu umumiy mehnat bozorida 3/4 qismini tashkil etadi. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni yashil iqtisodiyot loyihalariga jalb etish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy natijalar ham beradi.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi jadvalda O'zbekistonda KOBning so'nggi besh yildagi YalM, bandlik va sanoatdagi ulushi keltirilgan. Jadvalni kiritishdan maqsad — KOBning mamlakat iqtisodiyotidagi strategik o'rnini raqamli ko'rsatkichlar asosida ochib berish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonida ular qanday resursga ega ekanini asoslashdir.

1-jadval. O'zbekistonda KOBning iqtisodiyotdagi ulushi (2020–2024)¹

Yil	YalMdagi ulushi (%)	Bandlikdagi ulushi (%)	Sanoat mahsulotidagi ulushi (%)
2020	54,5	74,1	36,2
2021	55,1	74,5	37,0
2022	55,9	74,8	38,1
2023	56,2	75,0	39,3
2024	56,4	75,2	39,8

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda KOBning YalMdagi ulushi yildan-yilga o'sib bormoqda. Shu bilan birga, bandlikning barqaror yuqori darajada saqlanib qolishi va sanoat ishlab chiqarishdagi ulushning ortishi kichik biznesning iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Demak, yashil iqtisodiyot siyosatini samarali amalga oshirishda KOBni faol ishtirokchi sifatida ko'rish to'la asosga ega.

Mazkur yo'nalishda yana bir muhim ko'rsatkich – qayta tiklanuvchi energiya ulushidir. Quyidagi grafikda O'zbekistonda 2020–2024-yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi ko'rsatilgan. Grafikni kiritishdan maqsad – mamlakatda yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi ijobiy dinamikani ko'rsatish va kichik biznes uchun mavjud imkoniyatlarni ochib berishdir.

2-jadval. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi (2020–2024 yy.)²

Yil	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	O'sish sur'ati (yiliga, %)	Izoh
2020	10,0 %	–	Asosan gidroenergetika hisobiga
2021	11,5 %	+1,5 %	Quyosh va shamol loyihalari bosqichma-bosqich ishga tushirildi
2022	13,0 %	+1,5 %	Xorijiy investitsiyalar hisobiga yangi quyosh stansiyalari ishga tushdi
2023	14,2 %	+1,2 %	Shamol energetikasi ulushi ortdi, Samarqand va Navoiyda yangi quvvatlar yaratildi
2024	15,0 %	+0,8 %	Davlat tomonidan "Yashil energetika" dasturi doirasida qo'shimcha rag'batlar berildi

1 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari – 2024 yil. – Toshkent: Davstatqo'm, 2025. – 245 b.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi PF-4477-sonli "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini «yashil iqtisodiyot»ga o'tkazish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.



Ushbu statistik ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni boshlangan va ijobiy sur'atlarda rivojlanmoqda. Shu jarayonda kichik va o'rta biznesning innovatsion yechimlar yaratish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishdagi imkoniyatlari beqiyosdir.

Shu bois tadqiqotning maqsadi — yashil iqtisodiyotga o'tishda kichik va o'rta biznesning o'rni va imkoniyatlarini tahlil qilish, vazifasi esa mavjud muammolarni aniqlash, xalqaro tajribani o'rganish va O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan takliflarni ishlab chiqishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik va o'rta biznesning (KOB) "yashil iqtisodiyot"ga o'tishdagi o'rni va imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilishda nafaqat O'zbekiston, balki xorijiy tajribalar ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishda xorijiy olimlar, xalqaro tashkilotlar hamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan qator ilmiy ishlar olib borilgan.

Xorijiy adabiyotlarda, xususan, J. Schumpeter innovatsion rivojlanishda kichik biznesning iqtisodiyotga moslashuvchanligini alohida ta'kidlaydi. Unga ko'ra, KOB innovatsion texnologiyalarni tezroq joriy etish imkoniyatiga ega bo'lib, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini amalga oshirishda yetakchi kuch sifatida qaraladi. OECD (2022) hisobotida esa Yevropa davlatlarida kichik biznesning ekologik toza texnologiyalarni tatbiq etishdagi ulushi 40–45 foizni tashkil etgani qayd etilgan. Bu esa, barqaror rivojlanishda KOBning real hissa qo'shayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Porter va van der Linde (1995) o'z tadqiqotlarida "ekologik innovatsiyalar" nazariyasini ilgari surib, biznes subyektlari ekologik cheklavlarni imkoniyat sifatida qabul qilsa, ular nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. B. Molnar (2021) esa rivojlanayotgan davlatlarda kichik biznesning "yashil" loyihalarga kirishishidagi moliyaviy to'siqlarni ko'rsatib, davlat qo'llab-quvvatlovining muhimligini qayd etadi.

O'zbekiston olimlari ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratmoqda. Sh.M. Mirziyoyevning asarlarida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish milliy strategiyaning muhim ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan bo'lib, bunda kichik va o'rta biznesni ekologik toza ishlab chiqarishga rag'batlantirish zarurligi qayd etiladi. S. Abdullayev (2023) O'zbekiston sharoitida KOBni "yashil texnologiyalar" asosida rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlashini ilmiy jihatdan asoslaydi. U. Toshpulatov (2022) esa mahalliy tadqiqotida kichik biznesning energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishi natijasida ishlab chiqarish xarajatlari 12–15 foizga qisqarishini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP, 2023) va Jahon banki (2024) hisobotlarida O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning "yashil iqtisodiyot"dagi roli ortib borayotgani ta'kidlanib, quyidagi faktlar keltirilgan: qayta tiklanuvchi energiya loyihalarida ishtirok etayotgan kichik korxonalar soni 2020 yildan 2023 yilgacha qariyb 2 baravarga oshgan, suvni tejovchi texnologiyalarni qo'llayotgan xo'jalik subyektlarining ulushi esa 18 foizni tashkil etmoqda.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda muhim o'rin egallaydi. Ularning ekologik innovatsiyalarni tatbiq etishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli O'zbekiston tajribasida ham KOBni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moliyaviy imtiyozlar yaratish va xorijiy ilg'or tajribalarni tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METADALOGIYASI

Mavzuni ilmiy o'rganish, statistik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda kichik va o'rta biznes (KOB) sektorining roli alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bu sektor mamlakat iqtisodiyotining yarmidan ortiq qismini shakllantirib, millionlab kishilarni ish bilan ta'minlamoqda. Avvalo, moliyaviy resurslarning yetishmasligi masalasi dolzarb bo'lib, kichik tadbirkorlar yuqori foizli kreditlar va murakkab garov talablaridan kelib chiqib, ekologik innovatsiyalarga sarmoya kiritishda qiynalmoqda. Masalan, 2024-yilda kichik biznesning umumiy kreditlarga bo'lgan ehtiyoji atigi 37 foiz miqdorida qondirilgani ushbu muammoning dolzarbligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, texnologik yetishmovchilik ham KOBning yashil iqtisodiyotga qo'shilishini sekinlashtirmoqda. Ko'plab ishlab chiqarish subyektlarida energiya tejamkor uskunalar, chiqindi qayta ishlash texnologiyalari va suvni tejash inshootlari mavjud emas. Natijada resurslar isrofgarchiligi kuchaymoqda, ishlab chiqarish samaradorligi esa pasaymoqda. Shu bilan birga, ekologik ong va bilim darajasining yetarli emasligi ham muhim muammolardan biridir. Ko'plab tadbirkorlar "yashil iqtisodiyot"ning nafaqat ekologik, balki iqtisodiy



foydasini ham to'liq anglamaganligi sababli, ushbu sohadagi loyihalarga sarmoya kiritishga ehtiyotkorona yondashmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan moliyaviy rag'batlar, imtiyozli kreditlar va maxsus fondlar joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Germaniyada "Energiewende" dasturi doirasida kichik biznes subyektlariga past foizli yashil kreditlar, soliq chegirmalari va subsidiya dasturlari taqdim etildi. Natijada 2010–2020-yillar davomida qayta tiklanuvchi energiya umumiy energiya balansidagi ulushi 17 foizdan 42 foizgacha oshdi va 350 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Ushbu tajriba O'zbekiston sharoitida ayniqsa dolzarb, chunki mamlakat quyosh va shamol energetikasi bo'yicha katta salohiyatga ega.

Janubiy Koreya tajribasi ham O'zbekiston uchun qiziqarli bo'lishi mumkin. Ushbu davlatda 2009-yilda qabul qilingan "Green Growth Strategy" asosida kichik biznes uchun maxsus "Yashil fond" tashkil etilib, minglab loyihalar imtiyozli moliyalashtirildi. Natijada 2020-yilga kelib KOB ishtirokidagi loyihalar orqali energiya samaradorligi o'rtacha 27 foizga oshirildi. Bu amaliyotdan ko'rinib turibdiki, soddalashtirilgan moliyalashtirish mexanizmlari kichik biznesning yashil iqtisodiyotdagi ulushini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Xitoy esa "Green Credit Policy" siyosatini joriy qilib, banklar orqali ekologik loyihalar uchun past foizli kreditlarni keng tatbiq etdi. Natijada, 2022-yilda kichik biznes tomonidan amalga oshirilgan yashil loyihalar mamlakat umumiy energiya ishlab chiqarishining 15 foizini tashkil etdi. Bu tajriba O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, yashil kreditlash tizimini rivojlantirish orqali KOBning ekologik innovatsiyalarga sarmoya kiritishini rag'batlantirish mumkin.

Quyidagi jadvalda turli davlatlarning kichik biznesni yashil iqtisodiyotga jalb etishdagi choralar va erishilgan natijalari umumlashtirilgan:

3-jadval. Turli davlatlarda KOBning yashil iqtisodiyotdagi o'rni (2020–2024)³

Davlat	Asosiy choralar	Natijalar (2024)
Germaniya	Yashil kreditlar, soliq chegirmalari	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi – 42%
Janubiy Koreya	Green Growth Strategy, Yashil Fond	KOB energiya samaradorligi – +27%
Xitoy	Green Credit Policy	KOB ishtirokidagi yashil loyihalar – 15% energiya
O'zbekiston	"Yashil iqtisodiyot" strategiyasi (2019–2030)	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi – 15%, KOB ishtiroki past

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi O'zbekiston uchun eng maqbul model bo'lib, ularda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali ishlashi natijasida kichik biznesning yashil iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli oshgan. Xitoy tajribasi esa kreditlash tizimi orqali ekologik loyihalarni rag'batlantirishda samarali bo'lganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun Germaniya va Koreya tajribasidagi moliyaviy fondlar, soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimi bilan Xitoyning yashil kredit siyosatini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu choralar tatbiq etilsa, 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ulushini kamida 30 foizga yetkazish va KOBning yashil loyihalardagi ishtirokini ikki barobarga oshirish mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini hayotga tatbiq etishda kichik va o'rta biznes (KOB)ning roli beqiyosdir. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2024 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 55 foizi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan, bandlikning esa 76 foizidan ortig'i ushbu sohada shakllangan. Bu esa kichik va o'rta biznesni ekologik samaradorlikka yo'naltirish, ularda energiya tejamkor va resursni asraydigan texnologiyalarni joriy etish barqaror rivojlanishning muhim sharti ekanini ko'rsatadi.

Hozirda KOB faoliyatida "yashil" transformatsiyaga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar – moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, texnologik yangiliklardan foydalanish imkoniyatlarining yetarli emasligi, xalqaro standartlarga mos innovatsion boshqaruv yondashuvlarining sustligi va malakali kadrlar taqchilligi bilan bog'liq.

Jahon tajribasi, xususan Germaniya va Janubiy Koreya misolida, davlatning "yashil" kreditlash dasturlari, subsidiyalar va soliq imtiyozlari orqali kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashi energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishda sezilarli natijalar bergan. Masalan,

3 OECD. Green Growth in Small and Medium Enterprises. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 198 p.



Koreyada 2010–2020-yillarda “Green Growth Strategy” dasturi natijasida KOBlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarda qayta tiklanuvchi energiya ulushi ikki baravar oshgan, Germaniyada esa “Energiewende” siyosati natijasida 2022-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish 46 foizga yetgan. Ushbu tajribalar O'zbekiston sharoitida ham samarali qo'llanishi mumkin.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish – KOBlar uchun “yashil kreditlar”, imtiyozli subsidiyalar va xalqaro grantlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Texnologik transformatsiyani jadallashtirish – energiya tejamkor uskunalar, qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyani rivojlantirish – oliy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda kichik biznes uchun ekologik startaplarni qo'llab-quvvatlash.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish – ekologik standartlarni xalqaro me'yorlarga moslashtirish va ularni KOB faoliyatiga integratsiya qilish.

Kadrlar salohiyatini oshirish – “yashil menejment” bo'yicha o'quv kurslari, seminarlar va amaliyot dasturlarini tashkil etish.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy va boshqa davlatlarning ilg'or tajribalarini O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish.

Umuman olganda, kichik va o'rta biznesni “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida rivojlantirish O'zbekistonning nafaqat ekologik barqarorligini ta'minlaydi, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar, qo'shimcha ish o'rinlari va xalqaro bozorlarga chiqish imkonini ham kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi PF-4477-sonli “2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini «yashil iqtisodiyot»ga o'tkazish strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari – 2024 yil. – Toshkent: Davstatqo'm, 2025. – 245 b.
4. Abdurasulov X.R. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda ekologik omillarning o'rni. // Iqtisod va innovatsiyalar. – 2023. – №2. – B. 35–42.
5. Tojiboev M.Ya. O'zbekistonda barqaror rivojlanish va “yashil iqtisodiyot”: imkoniyatlar va muammolar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 312 b.
6. Yuldashev A., Karimova D. Green Economy in Uzbekistan: Challenges and Prospects. // Central Asian Economic Review. – 2022. – Vol. 4(3). – P. 57–68.
7. OECD. Green Growth in Small and Medium Enterprises. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 198 p.
8. United Nations Environment Programme (UNEP). Green Economy Report. – Nairobi: UNEP, 2021. – 254 p.
9. Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action (BMWK). Energiewende in Germany: Progress Report. – Berlin, 2022. – 146 p.
10. International Energy Agency (IEA). Renewable Energy Market Update – Outlook for 2024 and 2025. – Paris: IEA, 2024. – 102 p.
11. Lee J., Kim S. Korea's Green Growth Strategy: Policy Implementation and Achievements. // Journal of Cleaner Production. – 2021. – Vol. 312. – P. 119041.
12. Wang Y., Zhang H. The Effect of Green Credit Policy on SMEs in China. // Energy Policy. – 2022. – Vol. 158. – P. 112–124.
13. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). Green Finance and SMEs: Case Studies. – London, 2023. – 92 p.
14. Global Green Growth Institute (GGGI). Small Business and the Green Transition. – Seoul: GGGI, 2021. – 110 p.
15. Xalikov B.Y. O'zbekistonda kichik biznesning “yashil iqtisodiyot”dagi imkoniyatlari. // Iqtisodiy tahlil jurnali. – 2024. – №1. – B. 27–35.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>